




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI**



**Respublika  
Ta'lim Markazi**

**RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**2020-2021 O'QUV YILIDA IMKONIYATLARI CHEKLANGAN  
BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB VA MAKTAB-  
INTERNATLARNING 9-10-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY  
DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA ONA TILI  
FANIDAN METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



**Toshkent-2021**

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarining 9-10-sinf o'quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijorat maqsadda ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari metodbirlashmalari tomonidan bosqichli nazorat imtihon materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

### **Tuzuvchilar:**

**M.Boqijonova** - Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

**Sh.Qodirova** - Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

## **ONA TILI** **9-10-SINF**

### **Yakuniy nazorat imtihonlarini o'tkazish tartibi**

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Ijodiy bayon ko'proq badiiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog'liqlik to'g'risidagi mavzular yoritiladi.

O'quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar.

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish.
- Boshlab berilgan matnni o'z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish.
- Matn shaxsini o'zgartirib ijodiy bayon yozish
- Grammatik topshiriqli ijodiy bayon yozish.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosida topshiriq beriladi. Bir o'quvchi 3 ta konvertdan bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo'yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan (200-210 ta so'zlardan iborat bo'lgan) ijodiy bayon matni og'zaki va daktil nutqda ikki (lozim bo'lsa uch) marta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida (180-200 ta so'zlardan iborat bo'lgan) 2-2,5 bet bo'lishi lozim.

#### **Ijodiy bayon yozish uchun 180 daqiqa beriladi.**

Ijodiy bayon matnlari o'qituvchi tomonidan tanlanadi va ta'lim muassasi metod birlashmasida muhokama qilinib ma'qullanadi. Ma'qullangan materiallar ta'lim muassasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

**Bayon quyidagi mezonlar asosida baholanadi.**

<b>№</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Ball</b>
1	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lib mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa.	5
2	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlik qisman berilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada 2-3 kamchilik bo'lib, savodxonlikda 3 tagacha imlo, 3 tagacha ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa.	4
3	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqeyilik izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 4 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada 5-6 tagacha xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa .	2
5	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada, savodxonlikda 10 dan ortiq xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	1

**Ona tili**  
**9-10-sinf**

**Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim muassasalari uchun**  
**Ijodiy bayon mavzularidan namunalari**

**1-VARIANT**

**ASSALOM NAVRO'Z**

Fasllar kelinchagi bo'lmish bahor fasli kelishi bilan atrof-olam yam-yashil tus ola boshlaydi. Daraxtlar kurtak chiqarib, barg yozib, asta sekin gullay boshlaydi. Bahor fasli bayramlari bilan ham barchani o'ziga tortib, orziqib kutilgan fasl hisoblanadi.

Bahor faslida o'zbek xalqining eng sevimli bayramlaridan hisoblangan Navro'z bayrami nishonlanadi. Yangilanish, yosharish bayrami hisoblangan Navro'z "yangi yil", "yangi kun" demakdir. Navro'z bayrami qadimiy bayram sifatida asrlar davomida nishonlanib kelingan. Musulmon xalqlarida yillar almashinuvi, aynan, Navro'z kuni, ya'ni, 21-mart sanasiga to'g'ri keladi. Navro'z oldidan umumxalq hashari o'tkazilib, atrof-muhit tozalanadi, ko'chatlar o'tqaziladi. Hammayoq saramjon-sarishta qilinib, obodonlashtirish ishlari nihoyasiga yetkaziladi. Ilk bahorda onajonlar bayramini nishonlaymiz. O'zbek xalqining rasm-rusumlari, urf-odatlari asrlar davomida sayqallanib milliy bayramlarda, ayniqsa Navro'z bayramida ham o'z aksini topadi.

Navro'z kuni shod-hurramlik, kuy-ko'shiqlar, o'yin-kulgular avjida bo'ladi, xalq ko'shiqlari aytiladi. Navro'z bayramining tansiq taomi hisoblangan sumalak, halim tayyorlanadi. "Sumalak" atrofida momolarimiz childirma chalishadi, qizlar esa raqsga tushishadi. Navro'z ayyomining tansiq taomlaridan ko'k somsa, ko'k chuchvara, qatlama, chalpak va bo'g'irsoq kabi pishiriqlar pishiriladi. Ushbu kunda, avvalo, yoshi ulug' keksalar, betoblardan xabar olinadi. Gina-arazlar unutilib, qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, yor-u birodarlar yo'qlanadi. Insonlar bir-birlari bilan chiroyli muomalada bo'ladi.

Navro'z kuni tug'ilgan chaqaloqlarga – qiz bolalarga Navro'za, Bahora, Gulbahor, o'g'il bolalarga esa Navro'z, Murod kabi ismlar qo'yiladi. Navro'z qadimiy urf-odatlarimizni mujassamlashtirgan umr boqiy bayramdir.

*(107 ta so'z)*

## 2-VARIANT

### MENING VATANIM

Vatan – har bir kishining o‘z uyiga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga, yaqin kishilariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Vatanni doim onaga qiyoslashadi, chunki Vatanimiz ham onamiz kabi muqaddasdir. Ona-Vatan tushunchasi inson qalbida hech qachon o‘zgarmaydi. Bu aziz tuyg‘uni ona allasi parvarishlab voyaga yetkazadi. Inson o‘z Vatanida kamol topadi, qadrlanadi va baxt-saodatga erishadi. Vatan qalbi beg‘ubor olam, uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir. O‘zbek xalqi o‘z Vatanini doimo e‘zozlab kelgan. Vatan qadrini hamisha bilgan. Shunday ekan, Vatanni xuddi ota-onani sevgan kabi sevish kerak.

Mening Vatanim O‘zbekistondir. O‘zbekiston – quyoshli o‘lka, shuning uchun O‘zbekistonning yeri oltin, havosi beg‘ubor, suvi shirin. O‘zbekistonning so‘lim bahori, jazirama yozi, serhosil iliq kuzi, kumush qishi insonning ko‘ngliga quvonch bag‘ishlaydi. O‘zbekiston xalqi ulug‘vor, buyuk, mehmondo‘stdir.

O‘zbekiston boylikka kon diyor. O‘zbekistonning bitmas-tuganmas zahiralari bizning faxrimiz. Bu yurtning tilni yorar qovun-tarvuzlari, xushta‘m olma-yu anorlari, uzumlari jahonga mashhur. Bugungi kunda O‘zbekiston kelajakka ishonch bilan qadam tashlamoqda va jahonga yuz tutmoqda.

Albatta, o‘z Vatanini ta‘riflamagan shoir va adib topilmasa kerak. Bizning o‘zbek shoirlarimizning ko‘pchiligi Vatan haqidagi she‘rlari bilan adabiyotga kirib kelgan. Ayniqsa, Vatan haqidagi yetuk asarlari bilan ajralib turadigan shoirlarimizdan Hamid Olimjon, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ko‘plab ijodkorlarning asarlari insonga ma‘naviy zavq beradi.

Bitmas-tuganmas boyliklari, shahar va qishloqlari, sharqirab oqayotgan soylari, gullab-yashnayotgan bog‘lari, qorli tog‘lari kabi go‘zallikka ega bo‘lgan Vatanim - Mustaqil O‘zbekistonim bilan faxrlanaman.

*(208 ta so‘z)*

### 3-VARIANT

#### SUV – BEBAHO BOYLIK

Tabiatda suvni asrash qonuniyati mavjud. Suv oziq-ovqat ishlab chiqarishda, sog'liqni saqlashda insonlar uchun zarur ne'matdir. Atrof-muhitning tozaligini taminlash o'zimizga bog'liq. Tog'lardan keladigan suv tiniq, sof bo'ladi. Lekin yo'l-yo'lakay bazi kishilarning o'ylamay, chiqindilarni tashlashlari natijasida suvlarimiz ifloslanadi. Bolalar shu suvlarda cho'miladilar va turli kasalliklarga chalinadilar. Keyingi paytlarda suvga etibor susaydi. Ariqlardan toza suvlar oqmay qo'ydi. Chunki ariqlarda turli xil chiqindilar ko'payib ketdi. Atrof-muhitning tozaligini taminlash o'zimizga bog'liq.

Suvsiz hayot bo'lmaydi. Har qanday tirik mavjudodda suv bor. Odam va ko'p hayvonlar tanasining ikkidan uch qismi suvdan iborat. Suv okeanlar, dengizlar, daryo va ko'llarda, yer ostida va tuproqda ham bo'ladi. Muzlik va aysberglar ham suvdan iborat. Havoda ham suv bor. Ular bulut, tuman, bug', yomg'ir va qor holida bo'ladi. Suvning yana bir muhim xossasi bor. Suv o'zida ko'pgina moddalarni erita oladi. Suv hatto gazlarni ham eritadi. Tabiatda sof suv bo'lmaydi. Tabiatdagi suvlarda tirik organizimlar uchun zarur bo'lgan tuzlar bo'lmaydi. Dengiz suvida katta miqdorda tuz bo'ladi. Shuning uchun ularni ichib bo'lmaydi. Toza ichimlik suvlari borgan sari kamayib, orol va dengizlarimiz qurib ketayapti. Shuning uchun suvning har bir tomchisini asrab avaylab ishlatishimiz kerak. Suv bizlarga havodek zarur bo'lib, u hayotimizning bir bo'lagiga aylangan.

*(183 ta so'z)*